

O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL SANOATINING RIVOJLANISH BOSQISHLARI

F. G'aniyev

*Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" xarbiy akademik lesiysi
Avtotransport vositalari fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish to'g'risida, korxonani tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrda «Selxozmash» konserni va «DEU kofogeuzpp» korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobillar ishlab chiqaruvchi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini tashkil qilish to'g'risida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Avtomobil, O'zDEUavto, Damas", "Tiko", "Neksiya, General - Motors, Kaptiva , Epika , Takuma.

O'zbekistonda Avtomobil sanoati 90-yillar boshidan paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1992-yil iyun oyida Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi dastlabki hujjatlarni imzoladi. Shu yilning avgust oyida esa Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish to'g'risida kelishib olindi.

Korxonani tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrda «Selxozmash» konserni va «DEU kofogeuzpp» korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobillar ishlab chiqaruvchi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini tashkil qilish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Unda «Selxozmash» konserniga 3 oy muddat ichida respublikada avtomobilsozlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

1992-yil O'zbekiston Respublikasida Janubiy Koreyaning "DEU" korporatsiyasi bilan Asaka shahrida yillik loyiha quvvati 200 ming dona yengil avtomobillar ("Damas", "Tiko", "Neksiya") ishlab chiqaradigan "O'zDEU-avto", qo'shma korxonasi barpo etildi. Asaka avtomobil zavodida "Damas" mikroavtobuslarini seriyali ishlab chiqarish 1996-yil martdan yo'lga qo'yildi, 1996-yil 19-iyulda zavodning rasmiy ochilishi va xalqaro taqdimoti o'tkazildi. 1996 – 99 yillarda "O'zDEUavto" qo'shma korxonasida 200 mingdan ortiq avtomobil, 1999-yilda jami 60 mingga yaqin avtomobil ishlab chiqarildi ("Neksiya" – 28259, "Tiko" – 16380, "Damas" – 13663 dona). Chet elga 14 mingdan ortiq avtomobil eksport qilindi. Shuningdek 1995-yil "O'zavtosanoat" uyushmasi va Turkiyaning "Koch xolding" kompaniyasi o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, Samarqand shahrida yillik loyiha quvvati 5 ming donadan ziyod avtobus va turli yuk mashinalari ishlab

chiqarishga mo'ljallangan, umumiy qiymati 65 mln. AQSH dollariga teng "SamKochAvto" qo'shma korxo-nasini bunyod etildi.

O'rta Osiyoda avtobus va turli yuk mashinalari ishlab chiqaradigan mazkur yagona korxonani ishga tushirishga mo'ljallangan rasmiy takdimot marosimi 1999-yil 16-martda bo'lib o'tdi. Hozircha bu zavodda tayyorla-nayotgan mashinalar uchun butlovchi va ehtiyot qismlarning 25% O'zbekistonda 136 tasi shlab chiqarilmoqda. Kelgusida avtomobil qismlarini ishlab chiqarish tobora kengaytiriladi. Asaka avtomobil zavodida ham dastlabki butlovchi va ehtiyot qismlarning 15% mahalliy korxonalarda tayyorlangan bo'lsa, 1999-yilga kelib bu ko'rsatkich 55%ga yetdi. Respublika avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturini amalga oshirish maqsadida o'nlab qo'shma korxonalar tashkil etildi. Ular Janubiy koreyalik sheriklar ishtirokida tashkil etilgan zavodlar: "O'zkoramKo", "O'z-Tong Xong", "O'z-Dong Yang", "O'z-Don-gju Peint Kompani", "O'z-Sam Yang" va boshqa 1998-yilda "O'zavtosanoat" uyushmasi Xalqaro avtotransport ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkilotlariga a'zo etib qabul qilindi. Avtozavodlarning ko'plab dilerlari respublika ichida ham, undan tashqarida ham faol ishlamoqdalar. "O'zavtotexxizmat" aksiyadorlik jamiyati va "O'zbek-Lada" shular jumlasidandir. Avtomobillarning yangi modellarini yaratish maqsadida katta loyihalar ustida ishlar olib borilmoqda.

Avtomobilsozlik sanoati O'zbekistonda yangi sohalardan biri hisoblanadi, lekin u qisqa muddat ichida juda katta o'sishga erishdi. O'zbekistonda 1996- yildan chiqa boshlagan UZDaewooAuto mashinalarini hozirda dunyoga mashxur Chevrolet brendi o'rin olgan.

Mashinalarni ishlab chiqarishni birinchi bosqichi 1992 -yilda Janubiy Koreaning DaewooMotors kompaniyasi bilan tuzilgan manfaatli shartnomadan boshlangan, oshanda 'zbekistonning Autoqishxo'jamash va Daewoo kompaniyasi 50 % ga 50 % ulshli shartnoma imzolangan va manashu shartnoma Automobilsozlikda juda katta burilish yasadi. 1993-yilda UzDaewooAuto kompaniyasi davlat ro'yhatiga olindi va Andijon viloyatining Asaka shahrida korxonalar qurish ishlari boshlandi va uning umumiy summasi 658 mln dollarni tashkil etgan. Avtomobillarni ishlab chiqaradigan zavod o'shanda Koreaning eng zamonaviy texnologiyalari bilan jixozlandi, malakali ishchilar qabul qilindi va shu jumladan 1000ga yaqin O'zbekistonlik yoshlar Koreaga borib ish o'rganib kelishdi. Zavodda birinchi mashinaning ishlab chiqarilishi 1996- yildan boshlandi va birinchi bolib Damas rusumli avtomobil mart oyidan boshlab Tico iyun oyidan Nexia rusumli mashinalar ishlab chiqarila boshladi. 1996 -yil 19- iyulda Zavodning ochilish marosimi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi. Zavodning ilk yillarida barcha butlovchi qismlar xorijdan keltirilgan keyinchlik esa mashinalarning butlovchi qismlarini tayyorlaydigan kichik korxonalar

o'zlashtirilgan va shu yerning o'zida tayyorlangan. 2000- yil O'zDAEWOOavto zavodiga ISO - 9001 sersifikati berildi va 2001 -yil zavodning yangi yanada zamonaviy lineasi ishga tushirildi buni natijasida yangi Matiz rusumli yangi Avtomobil rusumi ishlab chiqarila boshladi, keyinchalik yana bir yangi Lasetti rusumli mashina ishlab chiqarish yo'lga qoyildi. 2007 -yilda UzDaewooAoto kompaniyasi negizida General - Motors korporatsiyasi bilan xamkorligda GM-Uzbekiston kompaniyasi tashkil etildi buning natijasida eng zamonaviy Kaptiva , Epika , Takuma kabi mashinalar Chevrolet brendi ostida ishlab chiqarildi. 2010- yilda Chevroletning eng zamonaviy Automobillaridan bo'lgan Spark rusumli mashinalar ishlab chiqarildi. Shu tariqa Avtomobilsozlikni mustaxkam poydevori yaratildi .

JV Man Auto-Uzbekistan — O'zbekiston-Olmoniya qo'shma korxonasi. MAN rusumli yuk mashinalari ishlab chiqaradi. 2009-yilda O'zavtosanoat va MAN shirkatlari o'rtasidagi kelishuvga binoan tashkil topgan. Kelishuv O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov va MAN bosh direktori Hokan Samuelsson tomonidan imzolangan.

Zavodi Samarqandda joylashgan. Korxonaning barqaror faoliyat korsatishi uchun barcha ishi-xizmatchilar nemis tilini o'rganishgan va nemis mutaxassislari tomonidan o'qitilganlar. 2009-2012-yillar davomida yuk avtomobillari Samarqand avtomobil zavodida ishlab-chiqarildi. 2012-yilda Jomboy tumanida MAN avtomobil zavodi qurib bitkazildi. Rejaga ko'ra, zavod yiliga 500dan 1500 donagacha yuk mashinalari ishlab chiqarishi kerak edi. Yuk mashinalari MDH mamlakatlariga ham eksport qilinadi.

1995- yilda O'zbekistonning Autosanoat kompaniyasi va Turkiyaning Kochxolding kompaniyasi bilan hamkorligda Samarqand viloyatida avtobuslarni ishlab chiqarish boshlandi . Samkocha davlat royxatiga olindi va 1999-yilda Otayo'l rusumli avtobuslarni tayyorlash boshlandi, shu yilning o'ziga 163 ta avtobus, 302 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi. 2000- yilda esa bu ko'rsatkichlar 483 va 102 tani tashkil etdi.2001 -yilda O'zbekistonda avtomobil sanoatida band bolgan ishchilar soni 14 mingga yetdi

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Yo'l Xarakati qoydalariga sharxlar va amaliy tavsiyalar Muxiddinov N.F, Xamidullayev -T 2001 y
- 2.Avtotransport vositalarini tuzulishi. Fayzullayev Y va boshqalar T-2005y
- 3.Avtomobillar tuzulishi Mamatov X.M va boshqalar T-2000y
4. Internet ma'lumotlari.